



Ingliz va o'zbek tillarida qarindoshlik terminlarining qiyosiy tasnifi.

Abdusattorov Mavlon Sherali o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti,

Lingvistika yo'nalishi, 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi qarindoshlik terminlari orasidagi o'xshash va farqli jihatlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oila, jamiyat, ota-ona, qarindoshlik, farzandlar, urug'chilik, urf- odat, madaniyat

Abstract: This article analyzes the similarities and differences between kinship terms in English and Uzbek from the linguistic point of view.

Keywords: family, society, parents, relative, children, custom, tradition.

Tillarni qiyosiy tipologik o'rganish ularning umumiy xususiyatlari uchun qimmatli material beradi va har bir tilning dunyo tillari tizimidagi o'rinini aniqlashga yordam beradi. Ularning rivojlanishi va o'zaro ta'sirining qonuniyatlari kabi muhim muammoni hal qilish uchun ham foydalaniladi. Dunyo tilshunosligida barcha millatlar qarindoshlik tushunchalarining necha asrlik ijtimoiy amaliyotda shakllangan va ijtimoiy tarkibda qo'llanadigan faol nasliy leksik tizim ko'rinishida, muayyan paradigmallar asosida batafsil o'rganilgan. Mazkur masala bir yoki turli tizimdagi tillarning grammatik tuzilishini inobatga olib va tilning alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qarindoshlik tushunchalarini terminlar sifatida o'rganishni taqozo etadi. Boshqa tillardagi kabi ingliz va



o'zbek tillarida ham qarindoshlik terminlari o'ziga xos leksik tizimni shakllantiradi. Ushbu tizimdagi ayol jinsiga xos qarindoshlik va yaqinlik terminlarining o'rganish bu birliklarning tarixiy taraqqiyotini va qo'llanish mexanizmini anglashga imkon beradi. O'zbek va ingliz tilshunosligida bugunga qadar so'zlarning semantik maydon asosida o'rganish yuzasidan qator ishlar amalga oshiriladi. Shunday bo'lsa-da, ingliz va o'zbek tillarida ayol jinsiga xos qarindoshlik va yaqinlik terminlari o'rganilgan emas.

Tillarni tipologik tadqiq etish ularning umumiy nazariyasi uchun qimmatli ma'lumotlarni beradi va ayni paytda har bir tilning dunyo tillari tizimidagi o'rnini anglashga yordam beradi. Shuningdek, ularning rivojlanish va o'zaro ta'siri qonuniyatlari kabi muhim masalalarni hal qilishda ham foydalaniladi. So'nggi paytlarda tilshunolar tomonidan turli tipdagi tillarning tipologik tadqiqotlariga jiddiy e'tibor qaratilayotganligi diqqatga sazovordir. Bu jahon hamjamiyati moddiy va ma'naviy hayotning barcha sohalarida globallashuv jarayonlarining tobora rivojlanib borayotganiga o'ziga xos javob ekanligini anglatadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki ingliz va o'zbek tillarining qiyoslanayotgan hodisalari taraqqiyot evalutsiyasini ko'rib chiqish asosiy vazifa emas: oldimizga nisbatan soddaroq-bu tillarning muayyan leksik qatlamini taqqoslash masilasi ko'ndalang qo'yilgan. Ma'lumki, turli tizimdagi tillarning alohida leksik qatlamlarini qiyoslash nihoyatda mushkul vazifadir.

Masalan, qiyosiy metod yordamida faqatgina bir til oilasiga mansub tillarning qiyosiy fonetikasi va morfologiyasi ko'rib chiqiladi, semantika va sintaksis materiallarini o'rganishda bu metodga passiv murojaat etiladi. Hozirgi kunda tilshunoslikka oid tadqiqotlarda lingvistik tadqiqotlarning zamonaviy usullari bilan bog'liq bo'lgan tizimli metod faol qo'llanmoqda. Biroq ta'kidlash joizki, tilning barcha qatlamlarini o'rganishda bu usul bir xilda samarali emas. Tilning lug'at manbalarini o'rganishda tizimli metod qator noqulayliklar tug'dirdi. Bu usulning noqulayligi va murakkabligining sababi shundaki, har qanday tilning leksik materiali o'ziga xosdir. Leksik manbani sistem metod bilan



o'rganishga to'sqinlik qiluvchi boshqa sabablar ham bor. Masalan, lug'at tarkibining ayrim leksik-semantik qatlamlari sistematik xarakterlarga ega bo'lib, ular tadqiqotning bunday yondashuviga mutanosib kelmaydi. Til materiallarini tizimli tadqiq qilish ko'p jihatdan XX asrning 50 yillarida vujudga kelgan komponent tahlil metodi bilan bog'liq. Komponent tahlil usuli har bir birlik sema yoki belgi deb ataluvchi komponentlardan iborat degan gipotezaga asoslanadi. Masalan, amaki leksemasining ma'nosi beshta sema yoki belgidan iborat: 1) Erkak kishi, 2) qarindosh, 3) gorizontal yo'nalishda qon-qarindosh, 4) otaning onasi yoki ukasi, 5) birinchi avlod qarindoshi. Xuddi shunday belgilar "bobo" atamasining ma'nosiga ham xos: 1) erkak kishi, 2) ota, 3) vertikal yo'nalishda ota, 4) qondosh ota, 5) ikkinchi avlod ota.

Leksik-semantik guruhlarini tadqiq etishda komponent tahlil usuli nisbatan tejamkor hisoblanadi va shuning uchun ham unga murojaat qilish ancha o'rinlidir. Aslida, semantik maydon biror bir semantik komponent asosida ajralib turgan bo'ladi. Masalan, qarindoshlik terminlari asosiy va umumiy komponenti-"qarindoshlik" asosida bir semantik maydonga birlashadi. Qarindoshlik terminlarini o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarda qo'llashda ikki va undan ortiq qarindoshlik terminlari o'rtasida "nostandart" sinonimik qator yuzaga keladi. Masalan aka (elder brother) qarindoshlik termini "aka" ma'nosi bilan, "ota" (father) terminiga, "bobo" ma'nosi bilan "bobo" (grandfather) ma'nosi bilan sinonimdir. "Opa" (elder sister) qarindoshlik termini, "ona" ma'nosida "ona" (mother) termini bilan "amma" ma'nosi bilan (aunt) xola ma'nosi bilan (aunt) terminlari bilan o'zaro sinonim bo'ladi. Bunday hollarda terminlarning semantik tuzilishi ularning o'z ma'nolari tuzilishiga xos bo'lmagan yangi sema belgilarini kasb etadi. Masalan, aka (elder brother) atamalarning semantik strukturasida ota (father), opa (elder sister) ma'nosi bilan "ona" ma'nosi bilan qarindosh ota-ona sema belgisi paydo bo'ladi.

Ilmiy ishimizning asosiy maqsadi, ingliz va o'zbek tillarida ayollar jinsidagi qarindoshlik va yaqinlik terminlarining mazmuniy ifoda vositalari paradigmasini



onomasialogik o'rganishdir. Bizga ma'lumki qarindoshlik terminlari har qaysi tilning lug'at tarkibida har qanday semantik tizim ostida o'ziga xos mikrosistema leksik-semantik maydon hosil qiladi. Har qanday semantik tizimosti qarindoshlik terminlarini o'rganish biz til oilasiga mansub tillarning tegishli va aloqador bo'lmagan genezisining ishonchli tasavvuri shakllanishiga yordam beradi. Yakob Grimm Hind- Yevropa tillari munosabatlarini aniqlay turib, tillarning qarindoshlik munosabatidan dalolat beruvchi to'rt guruh atamalarni keltiradi. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1) Son sistemasi;
- 2) Olmosh;
- 3) Verbum substantivum
- 4) “ota, ona-opa-singil, aka-uka” “qiz” tipidagii qarindoshlik terminlari.

Ilgari surilgan fikrlarni isbotlash uchun tahlil jarayonida I. Ismoilov ko'plab turkiy tillaridan tegishli misollarni keltiradi. G.G. Jofarov, A. Moiseyev kuzatuviga asoslanib qarindoshlik terminlari o'rtasidagi uchta bog'liklikni ko'rsatadi:

- 1) Qarama-qarshi nisbiylik bog'lanish;
- 2) Umumiy (yoki bilvosita) bog'lanish.
- 3) Izchil (yoki numerativ) bog'lanish.

Qarama-qarshi bog'lanish doirasida qarindoshlik terminlari tafovut asosida ular tomonidan ifodalangan qarindoshlik darajalari, qarindoshlikning adislarining deametal teskarisi bilan birgalikda qiyoslanadi va zidlanadi Masalan: ota-bola, ona, qiz, kelin, kuyov va hokazo. Umumiy (bilvosita) bog'lanish doirasida bir-birini bildiruvchi qarindoshlik terminlari ko'rib chiqiladi, bir holat mustasno (“er va xotin” atamasi) ketma-ket (chiziqli) bog'lanish doirasi xronologik kesimga nisbatan bir-biridan farq qiluvchi qarindoshlik terminlarini (ota – bobo, otaning otasi – katta bobo, boboning otasi) qiyoslanadi va zidlanadi. Takidlanishicha, nisbiylikning bu turi, aslida, chiziqli xarakterga ega ekanligi uchun o'zaro bog'lanish hosil qilmaydi.



M. Nazariyevning “O‘zbek tilining qarindoshlik terminlari maqolasida bu terminlar ikki guruhga bo‘linadi:

- 1) Qarindoshlik atamallari
- 2) Nikohdan keyin vujudga kelgan qarindoshlik atamallari.

Tarkibiy xususiyatlariga ko‘ra ular ikki xil ko‘rinishga ega:

- 1) Oddiylik (tub) opa, qiz, aka, jiyan, tog‘a, nevara, bobo, buvi, va hokazo;
- 2) Qo‘shma (murrakkab) ammayavachcha, qayinona, qaynota, buvi, tog‘a, jiyan, amakivachcha, katta buvi, o‘gay o‘g‘il va hokazo. Barcha qarindoshlik atamallari menga munosabati asosida tahlil qilinadi. Menga nisbatan qarindoshlik atamallari quyidagicha tasniflanadi.

- 1) Mendan katta: ota, ona, bobo, buvi, aka, opa;
- 2) Mendan kichkina: o‘g‘il qiz, uka, singil, jiyan, nevara, evara chevara;
- 3) Neytral (menga nisbatan): tog‘a, xola, amaki, amma.

Shu bilan birga, ayrim hollarda qarindoshlikni ifodalovchi terminlar bilan belgilanadigan shaxslar sub‘ekt so‘zlovchidan men katta yoki kichik bo‘lishi mumkinligini ya‘ni emasligi, ya‘ni olizyuktsiya hodisasi yuz berishi qayd etiladi. Ingliz va o‘zbek tillarining naslga nisbatan qarindoshlik terminlari birinchi, ikkinchi va uchinchi; tabiiy jinsga nisbatan uchga : erkak, ayol, neytral jinsga bo‘linadi. Ota, ona, aka, opa, uka, singil, o‘g‘il, qiz tipidagi qarindoshlik darajasiga nisbatan to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalanadi; Bobo, buvi, tog‘a, jiyan, amaki, nevara, evara, chevara, – bilvosita. Qarindoshlik terminlarining semantik strukturasi asosida ayrim belgilar (semalar) universal xarakterga ega.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillaridagi qarindoshlik terminlari o‘z xalqining madaniyati, ijtimoiy tuzilmasi va qadriyatlari haqida muhim ma‘lumot beradi. O‘zbek tilidagi terminlar ijtimoiy tafsilot va qadr –qimmatga asoslangan bo‘lsa, ingliz tilida bu munosabatlar soddalashtirilgan va ko‘proq shaxsiy tafakkurni aks ettiradi. Bu jihatlarda ikki xalqning dunyoqarashi va oilaviy an‘analaridagi farqni yoritib beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismoilov. I. Turkiy tillarda qavm-qasrindoshlik termimlar. – Toshkent; Fan, 1966. -150.
2. Narziyeva M. Qarindoshlik nomlarining komponent tahlili . “O‘zbek tili va adabiyoti” № 25.- Toshkent; 1999. C-47-48
3. Cambrige Interational dictionary of English -2000. Edited by Payl Procter